


「

Diaxron va Sinxron leksikologiya

」

✧ Diaxroniya (dia... va yun. chronos — vaqt, zamon) — til tizimining lingvistik tadqiqot manbai sifatidagi tarixiy taraqqiyoti, til taraqqiyotini vaqt nuqtai-nazaridan oʻrganish. Tilshunoslikda Diaxron tushunchasi sinxroniyaga qarama-qarshi qoʻyiladi. Diaxronik lingvistika baʼzan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, 20-asrdan boshlab tarixiy fonetika bilan aynan bir narsa deb qaraldi. Keyinchalik uning tadqiqot obʼyekti sifatida tildagi oʻzgarishlarni, bu oʻzgarishlarning sabablarini, paydo boʻlish davrini oʻrganish nazarda tutildi.



✧ 20-asr 2-yarmida diaxronik yondashish, til tarixini davrlarga bo'lib o'rganish bilan bog'liq sof tarixiy yo'nalishdan farqli o'laroq, til tizimida sodir bo'ladigan diaxronik o'zgarishlarni, tilning tizim sifatidagi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganishga qaratildi. Diaxron til faoliyati xususiyatlarini zamonda, jumladan, sinxroniyada bilishga imkon beruvchi vosita bo'lib, umuman til nazariyasining muhim qismidir.

- ✧ Sinxroniya (yun. synchronos bir vaqtli, bir davrli) —degan ma'noni anglatadi.
- ✧ 1) bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan, o'zaro boglik va aloqador unsurlar tizimi bo'lgan tilning (yoki boshqa biror ijtimoiy gumanitar fanning) muayyan rivojlanish davridagi holati; til rivojlanishi jarayonida muayyan o'zgarishlarning mavjudligi yoki ularning ahamiyatsiz ekanligi belgisi asosida ajratilgan davr;

- ✧ 2) tilni ko'rsatilgan holagda, ya'ni davr vaqt omili va lisoniy o'zgarishlarga bog'liq bo'lmagan holda tekshiriladigan aniq munosabatlar tizimi sifatida o'rganish. Sinxroniya yordamida tilning nafaqat hozirgi davri, balki o'tmishdagi davrlari ham alohida o'rganilishi mumkin. Masalan, o'zbek adabiy tilidagi unlilar tizimini 15-asrning yoki 20-asrning o'zidagi ahvolini alohida, bir biriga qiyoslamay tadqiq etish Sinxroniyadir.

- ✧ Sinxroniya tushunchasi diaxroniya tushunchasi bilan birga, unga qaramaqarshi qo'yilgan holda fransuz tilshunosi F.de Sossyur tomonidan fanga kiritilgan. Bu tushunchalarning Sossyur bo'yicha o'zaro farqlanishi, birbiridan ajratilishi statika bilan dinamikaning, til bilan nutqning, sistemalilik bilan sistemasizlikning, fonetika bilan grammatikaning qaramaqarshi qo'yilishiga muvofiq bo'ladi. Lekin modomiki til o'z tabiatiga ko'ra, doim harakatdagi, o'zgarishdagi obyekt sifatida tavsiflanar ekan, dinamika tilning har qanday mavjudlik davrida, jumladan, Sinxroniyada tilning ajralmas qismi bo'lib qoladi, binobarin, Sinxroniyada diaxroniya unsurlari ham uchrashi mumkin.

「SINXRON VA DIAXRON TILSHUNOSLIK O'RTASIDAGI FARQ」

- ✧ Sinxron tilshunoslik har qanday vaqtda tilni o'rgansa, diaxronik tilshunoslik esa tarixning turli davrlarida tilni o'rganadi.
- ✧ Demak, sinxron va diaxronik tilshunoslikning
- ✧ asosiy farqi ularni o'rganish yoki yondashish bilan bog'liq.
Diaxronik tilshunoslik tilning evolyutsiyasi bilan shug'ullanadi, sinxron tilshunoslik esa bunday emas.
- ✧ Bundan tashqari, ikkinchisida qiyosiy tilshunoslik, etimologiya, til evolyutsiyasi kabi fanlar, ikkinchida til xususiyatlarining grammatikasi, tasnifi va tashkil etilishiga e'tibor qaratilgan.

- ✧ Sinxron va diaxronik tilshunoslik o'rtasidagi farq ularning tadqiqot yo'nalishiga bog'liq. Chunki birinchisi tilga ma'lum bir davrda, ikkinchisi esa tarixning turli
- ✧ davrlarida tilga nazar tashlaydi. Biroq, ikkala soha ham tilni to'g'ri o'rganish uchun muhimdir. Sinxron va diaxron tilshunoslik o'rtasidagi farq ularning tadqiqot yo'nalishiga bog'liq. Chunki birinchisi tilga ma'lum bir davrda , ikkinchisi esa tarixning turli davrlarida tilga nazar tashlaydi.. Biroq, ikkala soha ham tilni to'g'ri o'rganish uchun muhimdir.

「
E'tiboringiz uchun rahmat

」



Zoho Show

Untitled Presentation.pdf

(This PDF has been generated using Zoho Show)

To create beautiful presentations, download Zoho Show from Play Store <https://zoho.to/cy7>